

EKISH TEXNOLOGIYASI VA MINERAL O'G'ITLAR ME'YORINING MOSH NAVLARINING O'SUV DAVRI DAVOMIYLIGIGA TA'SIRI.

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1015>

Abdisolomova Iroda Nurmurod qizi

Tadqiqotchi, Janubiy dehqonchilik ITI.

<https://orcid.org/0009-0005-8947-1291>

ANNOTATSIYA

Qashqadaryo viloyati och tusli bo'z tuproqlari sharoitida mosh o'simligining Durdona va Barqaror navlari o'suv davri davomiyligiga ekish tizimlari hamda ma'danli o'g'itlar qo'llash me'yorlarining ta'siri ekish oraliqlari kengayishi va ma'danli o'g'itlar me'yori ortishi natijasida mosh navlarining o'suv davri 1 kundan 7 kungacha uzayishi aniqlandi. "Durdona" navi nisbatan ertapishar bo'lib, uning o'suv davri 89–96 kunni, "Barqaror" navida esa 94–101 kunni tashkil etdi.

Kalit so'zlar: mosh, nav, Durdona, Barqaror, mineral o'g'it, ekish sxemasi, ko'chat qalinligi, o'suv davri, fenologik fazalar.

KIRISH

Mosh dunyo qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan dukkakli ekinlardan biri bo'lib, u oqsil, vitamin va mineral moddalarga boyligi hamda qisqa vegetatsiya davriga ega va tuproq unumdorligini oshiruvchi dukkakli ekin sifatida katta ahamiyatga ega.

Mosh ekinining o'suv davri davomiyligiga ekish tizimlari va ma'danli o'g'itlar me'yorlari muhim ta'sir ko'rsatadi. Ekish oraliqlari o'simliklarning yorug'lik, namlik va ozuqa maydoni bilan ta'minlanish darajasini belgilaydi. Shuningdek, ma'danli o'g'itlar, ayniqsa azot, fosfor va kaliy o'simliklarning o'sishi va rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta'sir etadi. Azot vegetativ o'sishni kuchaytirsa, fosfor va kaliy ildiz tizimi hamda generativ organlarning shakllanishini tezlashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida mosh ekinini hosildorligini va oqsil miqdorini oshirishda maqbul ekish tizimi va ma'danli o'g'itlash me'yorlarini ishlab chiqish.


Materiallar va uslublar. Dala tajribalari Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba dalalarida, och tusli bo'z tuproqlar sharoitida o'tkazildi. Tajriba 18 ta variantdan iborat bo'lib, 3 takrorlanishda bir yarusda joylashtirildi. Tajribada mosh ekinining Davlat pesstriga kiritilgan "Durdona" va "Barqaror" navlari ekildi. Moshning "Durdona" va "Barqaror" navlari urug'lari uch xil ekish (60x5; 76x5; 90x5 sm) tizimida uch xil ko'chat (333,3; 263,2; 222,2 ming tup/ga) qalinligida ekilib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning uch xil (N30P45K30; N45P60K45; N60P90K60 kg/ga) me'yorlari qo'llanilib o'rganildi.

Mosh yekini fenologik kuzatuv hamda hisoblash ishlarini olib borishda "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007) metodik qo'llanmasi asosida olib borildi va fenologik kuzatuvlar «Metodika Gosudarstvennogo sortoispaniya selskoxozyaystvennix kultur» (1989), natijalarni statistik tahlil qilishda B.A.Dosrexovning "Metodika polevogo opita" (1985) uslubidan foidalanilgan holda ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazildi.

Munozara. Tajribada keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, mosh navlarining o'suv davri davomiyligiga urug' ekish tizimlari va ma'danli o'g'itlar me'yorlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tajribada "Durdona" navi nisbatan ertapishar bo'lib, uning o'suv davri 89–96 kun oralig'ida qayd etilgan bo'lsa, moshning "Barqaror" navida bu ko'rsatkich 94–101 kunni tashkil etdi. Bu holat "Barqaror" navi biologik jihatdan kechpisharroq ekanligini ko'rsatadi. Har ikki navda ham eng qisqa o'suv davri 60x5 sm ekish tizimida ma'danli o'g'itlarning N30P45K30 kg/ga me'yorlari bilan

oziqlantirilgan variantda kuzatilib, “Durdona” navida 89 kunni, “Barqaror” navida 94 kunni tashkil qilgani aniqlandi.

Shu bilan birga mosh navlari ekish oraliqlari kengayib, ko‘chat qalinligi 333,3 ming tup/ga dan 222,2 ming tup/gacha kamaygan sari o‘sov davri 4–7 kunga uzaygani aniqlandi. Xususan, “Durdona” navida 90×5 sm tizimi ekilib, ma‘danli o‘g‘itlarning N60P90K60 kg/ga me‘yorlari qo‘llanilganida o‘sov davri 96 kunga yetgan bo‘lsa, “Barqaror” navida shu variantda 101 kungacha cho‘zilgan. Bu esa siyrak joylashgan o‘simliklarda ozuqa maydoni kengayishi hisobiga vegetativ o‘sinh faollashib, rivojlanish fazalari uzayishini ko‘rsatadi.



1-rasm. Mosh o‘simligi o‘sov davriga turli ekish tizimlari hamda ma‘danli o‘g‘it me‘yorlarining ta‘siri.

Tadqiqotlarimizda qo‘llanilgan ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlari oshirilgan sari fenologik fazalarga kechroq o‘tgani kuzatildi. Ya‘ni, ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlari N30P45K30 kg/ga dan N60P90K60 kg/ga gacha oshirilganda o‘sov davri har ikki navda o‘rtacha 2–3 kunga uzaygan. Bu azot mosh navlarida vegetativ o‘sinhni kuchaytirib, generativ fazalar boshlanishini biroz kechiktirishi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Mosh navlarining o‘sov davri davomiyligiga ekish tizimlari va ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlari sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ekish oraliqlari kengayishi hamda ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorining oshishi natijasida o‘sov davri 1kundan 7 kungacha uzaydi. “Durdona” navi nisbatan ertapishar, “Barqaror” navi esa kechpishar ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. O‘zPITI, Toshkent 2007 g. 33-61 s.
2. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. Выпуск второй. Зерновые, крупяные, зернобобовые, кукуруза и кормовые культуры. Москва - 1989. Стр.30-38.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статической обработки результатов исследований). – 5-е изд., доп. и перераб. –М.: Агропромиздат, 1985. 253-255 с.
4. Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”. 2018 yil.